

**D. LUTFULLAYEVA, R. DAVLATOVA, B. TOJIBOYEV**

**O'ZBEK TILI  
ASSOTSIATIV  
LUG'ATI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT**  
**O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**D. LUTFULLAYEVA, R. DAVLATOVA, B. TOJIBOYEV**

**O‘ZBEK TILI ASSOTSIVTIV**  
**LUG‘ATI**

**(milliy-madaniy birliklar)**

**“NAVOIV UNIVERSITETI” nashriyot-matbaa uyi**  
**TOSHKENT – 2019**

**KBK 81.2 O'zb-4**  
**L 93**  
**UO'K: 811.512.133'374.81**

**ISBN 978-9943-5635-9-9**

**Lutfullayeva D., Davlatova R., Tojiboyev B.**

**O'zbek tili assotsiativ lug'ati (milliy-madaniy birliklar). / lug'at /  
- Toshkent: "Navoiy universiteti" NMU, 2019. - 332 b.**

"O'zbek tili assotsiativ lug'ati (milliy-madaniy birliklar)" so'zlar orasidagi assotsiativ munosabatni aks ettiruvchi lingvistik lug'at (*stimul so'z* → *javob reaksiyasi* tipidagi lug'at) hisoblanadi. Unda o'zbek tilidagi 100 ta milliy-madaniy birlik bo'yicha til egalari xotirasida tiklangan 42645 ta javob reaksiyasi (assotsiatsiyalar) o'rin olgan. Ushbu lug'at o'zbek tili egalarida yozma so'rov shaklida o'tkazilgan erkin assotsiativ tajriba materiallari asosida yaratildi.

Lug'at o'zbek tilidagi milliy-madaniy birliklarning leksik-semantik, assotsiativ ma'nosi, boshqa birliklar bilan semantik-mantiqiy va assotsiativ bog'lanishi asosida nutqda birga qo'llanishi, madaniylik, ijtimoiylik, genderologik, pragmatik, kognitiv xususiyatlari haqida ma'lumot beradi. Ushbu lug'at nafaqat tilshunoslar, til egalarining lisoniy ongi, til birliklari zaxirasi, tashqi olam haqidagi bilimlari, dunyoqarashi, milliy-madaniy qarashlari, qiziqishlari, voqelikka munosabati, ruhiyati, hayotiy, kasbiy tajribalari, hatto tashvish-u muammolari haqida bilim berishi jihatidan keng omma uchun ham muhim ma'lumotlar bazasi hisoblanadi.

**Mas'ul muharrir:**

filolofiya fanlari doktori, prof. Sh.Sirojiddinov

**Taqrizchilar:**

filolofiya fanlari doktori, prof. N.Mahmudov

filolofiya fanlari doktori, prof. D.Xudoyberganova

Lug'at Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (10-sonli majlis qarori, 30.05.2019).

© Lutfullayeva D., Davlatova R., Tojiboyev B.

© "NAVOIY UNIVERSITETI" nashriyot-matbaa uyi, 2019



## DUNYO LUG‘ATSHUNOSLIGI TAJRIBASIDAN: ASSOTSIATIV LUG‘ATLARNING YARATILISHI

O‘tgan asrda o‘zbek milliy lug‘atchiligida qamrovi, maqsad va vazifasiga ko‘ra turli-tuman lug‘atlar yaratildi. Bugungi kunda mazkur sohadagi ishlarni yanada jonlantirish, davr talabi va ehtiyojiga aylangan lug‘at va qomuslarni yaratish dolzarb muammolardan biriga aylandi.

Respublikamiz birinchi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmonida soha mutaxassislari zimmasiga milliy tilimiz va adabiyotimizni yanada rivojlantirish, ona tilimizning jamiyat hayotida tutgan mavqeyini yuksaltirish, uning tarixiy taraqqiyoti, bugungi holati, istiqboli bilan bog‘liq masalalarni ilmiy asosda chuqur o‘rganish kabi qator vazifalar yuklatildi.<sup>1</sup> Farmonda, ayniqsa, turli mavzulardagi lug‘at va qomuslar yaratish masalasiga alohida e‘tibor qaratilganligi bejiz emas. Bugungi kunda o‘zbek lug‘atchiligida davr ehtiyojiga aylangan, yaratilishi lozim bo‘lgan bir qator lug‘at turlarini qayd etish mumkin. Jumladan, “O‘zbek tili assotsiativ lug‘ati”ni yaratish yangi davr o‘zbek leksikografiyasining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Jahon tilshunosligida ilk assotsiativ lug‘at 1910-yilda amerikalik olimlar X.G.Kent va A.J.Rozanovlar tomonidan ingliz tili materiallari asosida ishlab chiqilgan. Ushbu lug‘atda yuqori chastotali 100 ta stimuly so‘z bo‘yicha 1000 ta sinaluvchida o‘tkazilgan assotsiativ tajriba materiallari aks

---

<sup>1</sup> “Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида”ги фармон // <http://www.uza.uz>